Yuqori haroratda mikroorganizmlar – zamburug' va bakteriyalar halok bo'ladi. Ammo ularning yuqori haroratga bo'lgan munosabati turlichadir. Agar ba'zilar 100°S gacha yo'qolsa, ba'zilar esa 100°S dan keyin yo'qoladi. Ayniqsa spora shaklli bakteriyalar o'ta chidamli bo'lib, ularni yo'qotish uchun 120°S gacha qizdirish kerak bo'ladi. Odatda yuqori issiqlikka chidamli mikroflora tarkibida ko'p miqdorda azot moddalarga ega bo'lgan sabzavotlarga mansubdir.

Sterilizatsiyaning davomiyligi mahsulotlarning konsistensiyasiga bog'liq bo'lib, suyuq pyure butun sabzavot yoki mevalarga nisbatan tez qiziydi.

Рахбар	Tuyg'unov R				
Бажарди	Ishmurodov T				
Узг	Варак	№ хужжат	Имзо	Сана	001.422.044. БМИ. 2014 й.
					Варак

Shuningdek, idish turlariga (shisha idishlarda temir idishlarga nisbatan qizish sekin boradi) va hajmlarga bog'liqdir.

Issiqlik sterilizatsiyalashning asosiy turi – sharbatlar va pomidorli konserva mahsulotlari olish uchun ishlatiladigan qaynatib quyish hisoblanadi. Mahsulotni qaynatishgacha olib boriladi va tezda zararsizlan-tiriladi hamda qizdirilgan idishlarga joylanadi va zich yopiladi.

Issiqlik sterilizatsiya usuli yordamida olinadigan konservalar – asl sabzavot, sabzavot va pomidor mahsulotlari, rezavor-meva kompotlari va pyuresi, tiniq va laximli sharbatlar, shuningdek, marinadlarga bo'linib, ularda issiqlik sterilizatsiyasi yordamida ishlash bilan bir qatorda oziq-ovqat konservanti – sirka kislotalari qo'shiladi.

Yuqori sifatli konservalar olish uchun birinchi navbatda xom ashyoga, ya'ni sabzavot va mevalarning ma'lum oziq-ovqat va texnologik ko'rsat-kichlariga – vitamin, ta'm, xushbo'ylik, konsistensiya, rang, shakl, katta-kichiklik, tozalangandan keyingi chiqim miqdori, issiqlikda qayta ishlash va boshqalarga bog'liqdir.

Konservalash uchun shisha, temir, polimer hamda alyumin tublar-dan iborat idishlardan foydalaniladi. Jahon amaliyotida medisi-na nuqtai nazaridan shisha konserva idishlari ma'qul hisoblanadi, chunki shisha nordon mahsulotlarga nisbatan chidamli hisoblanadi.

Vatanimizda 0,2-1 litr hajmli bonkalar, 2-10 litrli ballonlar va tor og'izli shisha idishlar ishlatiladi. Idish rangsiz bo'lishi (ozgina havorang yoki yashil rangli idishlarga ruxsat etiladi) kerak.

Asl sabzavot konservalari. Bunday konservalar ortiqcha ishlovsiz tayyorlanadi. Aralashmaga faqat 2-3% tuz (ba'zida qand) qo'shib, dastlabki mahsulotdan oz farq qiladigan, tarkibi va organoleptik ko'rsatkichlari deyarli o'xshash mahsulot olish imkonini beradi. Bunday konservalarni vinegret va garnirlar tayyorlash uchun yarim fabrikat hamda alohida taom sifatida iste'molga ishlatish mumkin.

Рахбар		Tuyg'unov R			001.422.044. БМИ. 2014 й.	Варак
Бажарди		Ishmurodov T				
Узг	Варак	№ хужжат	Имзо	Сана		

Asl sabzavot konservalarini ishlab chiqarish texnologik jarayoni quyidagidan iborat: mahsulotlarni yuvish, saralash va katta-kichikligiga qarab ajratish, oqartirish, ba’zida kesish va maydalash, idishlarni to’ldirish, qopqoqni yopish va sterilizasiyalashdan iborat (2-rasm).

Butunligicha konservalangan tomatlar. Konservalash uchun unchalik katta bo’lmagan oz kamerali tekis,olxo’riga o’xshash shaklli, zich yetli navlar to’g’ri keladi. Tomatlar po’stli va po’stsiz konservalanadi. Po’stini tozalash juda murakkab va ko’p mehnat talab qiladi. Mevalarni 10-20 soniya davomida kuchli bug’ ostida ishlov beriladi, so’ng sovutilib, po’stlog’i qo’lda olinadi. Shuningdek ularni 15-18% li kaustik soda yeritmasiga 90-95°S tushirib, 20-30 soniya davomida ishlov berish mumkin, keyin sovuq suvda yaxshilab chayiladi va tozalanadi. Po’st tozalashning boshqa usullaridan yuqori haroratli o’choqlarda kuydirish, navbatma-navbat tez muzlatish va keyin issiq suvda yeritish qo’llaniladi.

Tayyorlangan mevalar bankalarga joylanib, ustidan 2-2,5% li tuz yeritmasi yoki tuzsiz tomat suyuqligi quyiladi. Po’stlog’isiz mevalar faqat tomat suyuqligi bilan quyiladi. Meva to’qimalarini zichlashtirish va ular-ni darz ketishining oldini olish uchun suyuqlikga 0,16% li kalüsiy xlorid yeritmasi qo’shiladi. Kalüsiy xlorid pektin moddalari bilan ta’sirlanib, meva to’qimalarini yanada zichroq qiladi. Idishlar yopilib, asl tomatlar 100-105°S da sterilizasiyalanadi.

Konservalangan bodringlar. Xom-ashyo sifatida zich yetli, kichik urug’ kamerali, ya’ni to’liq yetilmagan yashil-kornishon bodring navlaridan foyda-lanish mumkin. Konservalashda tuzlash singari ochiq tuproqda yetishtirilgan yangi uzilgan hamda 10 soat ichida saqlangan bodring ishlatiladi.

Yashil bodringlar saralash va kalibrlashtirishdan keyin suv shimdiriladi yoki oqartiriladi. Shimdirish 0,5-1 soat davomida sovuq suvda amalga oshiriladi, oqartirish yesa 50-60°S li suvda 3-5 daqiqa davomida olib boriladi, keyin mevalarni tezda sovuq suvga solib chayiladi.

Tayyorlangan mevalarni 2-3 l shisha bankalarga joylanadi. Mevalar to’plami

Рахбар	Туьг'unov R			001.422.044. БМИ. 2014 й.	Варак
Бажарди	Ishmurodov T				
Узг	Варак	№ хужжат	Имзо	Сана	

tayyor mahsulot og'irligidan 70 mm, kornishonlar kamida 55% ni, boshqa o'lchamdagi mevalar yesa 50% ni tashkil yetadi. Ba'zida 14 smdan yirik mevalarni qismlarga bo'lib ham konservalanadi. Bankaga joylanadigan ziravorlarning miqdori konserva uyumini 2,5-3,5%ni tashkil yetishi kerak. Odatda quyidagi dorivor o'simliklarni tayyor mahsulotni miqdoriga nisbatan quyidagi%da ishlatiladi: 1% ukrop, 0,25% petrushka, 0,6% seldrey, 0,6% yer qalampir bargi, 0,05% yalpiz bargi, 0,25% sarimsoq, 0,02% lavr bargi, quruq achchiq 0,07% qalampir; 0,04% qora murch ishlatiladi.

Qo'shiladigan eritma 6-7% tuz va 1% li sirka kislotasidan iborat bo'ladi. quyish harorati 70°S. Sterizasiyalash ochiq vannalarda amalga oshir-iladi. Avtoklavlarda sterilizasiyalash 100°S da 5-10 daqiqa davom yetadi.

Shunindek, gul karam, loviya, qalampir, shpinatdan pyure va boshqa sabzavot asl konservalari ham tayyorlanadi. g'arbiy Yevropa davlatlarida vinegret, garnir, suyuq ovqatlar uchun aralashma sabzavot konservalari tayyorlash keng tarqalgan.

Qiymali shirin qalampir. Saralash va yuvilishdan keyin mevalardan urug'i bilan meva bandlari kesib tashlanadi. Bu ishlar qo'lda bajariladi. Tozalangan mevalar 1-2 daqiqa davomida bug'li oqartirgichlarda oqartirila-di. Bunda suvda oqartirilganga nisbatan kam, ya'ni 10% gacha S vitamini isrof bo'ladi. Oqartirish, shuningdek, meva devorchalarining yegiluvchan-ligini yaxshilaydi. Oqartirilgan shirin qalampir sovuq suvda sovutiladi. Bir vaqtning o'zida qiyma tayyorlanadi, buning uchun maydalangan sabzavotlar qovuriladi, so'ngra aralashtiriladi. qovurish asosiy ish bo'lib, qozonlarda bajariladi. qiyma uchun sabzavotlar qovurilish sifati foydalaniladigan moy (kungaboqar yoki paxta yog'i) ga bog'liq.

Qiyma tayyorlashda sabzining qovurilishi 45-50%, piyoz uchun 50%, baq-lajon uchun 32-35% bo'lishi kerak. qiyma tarkibi turlicha bo'lishi mumkin. Asosiy qismini sabzi, qolgani oq ildiz, piyoz, ko'katlar tashkil yetadi. Keyingi paytlarda guruchli sabzavot qiymalari tayyorlash keng qo'llanil-moqda, u oqartiriladi va 50% atrofidagi qismi aralashmaga qo'shiladi.

Qiyma tayyorlashning texnologik qo'llanmalarida sabzavot-lar nisbati aniq

Рахбар	Tuyg'unov R			001.422.044. БМИ. 2014 й.	Варак
Бажарди	Ishmurodov T				
Узг	Варак	№ хужжат	Имзо	Сана	

ko'rsatiladi. Masalan, qiymali garimdori uchun 78% sabzi, 8% oq ildiz, 11% piyoz, 2,5% ukrop, petrushka, seldrni tuz qo'shilgan yefir moyli aralashmasi ishlatiladi. qiymali sabzavotlarni tayyorlash uchun ularga quyishga 8% tomat pyure, 0,03% yanchilgan xushbo'y qalampir, 0,12% achchiq qalampir, 0,2% qand va 2,3% tuzdan tashkil topgan tomat sousi tayyorlanadi. Sousdagi quruq moddalarning umumiy miqdori 15,6% bo'lishi kerak. qiymali garimdori mevalarini idishlarga joylab ustidan sous quyiladi, so'ngra qopqoq yopiladi va 120°S da sterilizasiyalanadi. qiyma joylangan garimdori mevalari butun, yashil zaytun rangli, och sariq yoki qizil rangli bo'lishi kerak. Garimdori va qiymadagi sabzavotlarning zichlik darajasi me'yorida bo'lishi shart.

Qovurilgan qovoqchalar. Bu ommabop konserva turini olish uchun ishlar qiymali sabzavot konservalari singari amalga oshiriladi. Yuvilgan mevalar 15-20 mm qalinlikda, doira shaklida kesilib, qozonlarda qovurila-di. So'ng kabachkilar biroz sovutilgandan keyin bankalarga joylanib, garimdori qiymasi singari tarkibiga sabzavot qiymalari qo'shiladi va ustidan kamida 16,5% quruq modda miqdoriga ega qaynoq tomat sousi quyiladi. 22% sous va 3% o'simlik moyi qo'shiladi. qadoqlangan konserva-lar yopiladi va 120°S da sterilizasiyalanadi.

Qovurib tayyorlangan baqlajon taomi (ikra). Qovurib tayyorlanadigan sabzavot taomlarini xillari ko'p bo'lib, ularning ichida baqlajonni qovurish yeng ko'p tarqalgan. Kesilgan va qovurilgan baqlajon issiq holatida 3,5 mm kattalikdagi maydalagichdan o'tkaziladi. Shundan keyin ikra donador tuzilishga ega bo'ladi. So'ngra qorishtirgichdan uni o'tkazib, maydalab qovuriladi: 4,6% sabzi, 3,1% piyoz, 0,3% ko'kat, 1,5% tuz, yanchilgan xushbo'y va achchiq qalampir, qand, oq ildizlar 12%, tomat pyure yoki tomat halimi 20% atrofida qo'shiladi. Yaxshi aralashtirilgan taom idishlarga joylanadi, yopiladi va 120°S da sterilizasiyalanadi.

Shuningdek, sabzavot aralashmalaridan xilma-xil turdagi tushlik konservalar tayyorlanadi. Ularni tayyorlash texnologiyasi yegulik konservalar tayyorlashdan deyarli farq qilmayda. Bolalar ovqatlari va parhyez uchun konservalar tayyorlashni ishlab chiqarish keng rivojlanmoqda.

Рахбар	Tuyg'unov R			001.422.044. БМИ. 2014 й.	Варак
Бажарди	Ishmurodov T				
Узг. Варак	№ хужжат	Имзо	Сана		

3.6. Mirkobiologik usulda konservalash

Shakarni mikroorganizmlar ishtirokida bijg'itib sut kislotasi, ya'ni mikrobiologik konservant hosil qilish mumkin. Sabzavotlarni mikrobiologik usulda konservalash tabiiy konservantlarga sut kislotasi, spirtlardan foydalanishga asoslangan.

Mikrobiologik jarayon bijg'ishni to'g'ri olib borish uchun bir qator sharoitlar mavjud bo'lishi kerak. Jumladan, sut kislotasi hosil qiluvchi bakteriyalar bo'lishi, ushbu bakteriyalarning faoliyati uchun zarur bo'lgan moddalar (shakar va boshqalar), tuzning ma'lum konsentratsiyasi va bakteriyalarning yashashi uchun zarur bo'lgan harorat bo'lishi lozim. Bundan tashqari kislorod almashinuvini ta'minlash ham kerak bo'ladi.

Bijg'ish jarayonida oz miqdorda spirt va kislota ham hosil bo'ladi. Bu birikmalar mahsulot, sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatmaydi. Lekin moy kislotasining to'planishi mahsulotga achchiq ta'm beradi. Shu bilan birga sirka kislotasi ham mahsulotning sifatini pasaytiradi. Bijg'ish jarayoni og'zi zich berkitiladigan idishda olib borilib, shu idishda saqlansa mahsulot sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi kislotalarning hosil bo'lishi kamayadi.

Bakteriyalarning faoliyati uchun osh tuzining ham foydasi katta. Osh tuzi meva hujayralaridagi shakarni siqib chiqaradi (plazmoliz hodisasi) va undan bakteriyalar osongina foydalanadi. Osh tuzi solingan muhitda sut kislotasi hosil qiluvchi bakteriyalar erkin yashay oladi. Bunday bakteriyalar uchun osh tuzining konsentratsiyasi 12-13% bo'lishi qulay hisoblanadi.

Bijg'itish uchun harorat ham ijobiy omillardan hisoblanadi. Sut kislotasi hosil qiluvchi bakteriyalarning yashashi uchun zarur bo'lgan maqbul haroratda bir qator boshqa mikroorganizmlar ham rivojlana boshlaydi. Shu sababli, bijg'ish jarayonini 22-24S da o'tkazish maqsadga muvofiq. Bundan past haroratda bakteriyalarni faoligi susayadi va 4-5°S da umuman to'xtaydi. Harorat 0°S ga tushganda esa hamma mikrobiologik jarayonlar to'xtaydi.

Рахбар	Tuyg'unov R			001.422.044. БМИ. 2014 й.	Варак
Бажарди	Ishmurodov T				
Узг	Варак	Не хужжат	Имзо	Сана	

Qayta ishlash sanoatida mikrobiologik usulda konservalash muhim o'rinni egallaydi. Ayniqsa, sabzavotlarni tuzlash keng qo'llaniladi.

Sabzavotlarni tuzlash ularda sut kislotasi va bijg'ishning boshqa mahsulotlarini hosil qilishga qaratilgan (asidosenoanabioz).

Karamni tuzlash. Qayta ishlash sanoatida karamni tuzlash keng tarqalgan. Karamni tuzlash texnologiyasi oddiy bo'lib, uni har bir xo'jalikda tashkil qilsa bo'ladi. Tuzlash uchun faqat oq karamning o'rta va kechpishar navlari Toshkent-10, O'zbekiston sudyasi, O'zbekiston likurishkasi, Slava-1305 ishlatiladi.

Karamni tuzlash uchun uni sirtidan yashil va ifloslangan barglardan tozalanadi, yuviladi, so'ngra 4-8 bo'lakka bo'linadi. Ayrim hollarda esa karam butunligicha tuzlanadi.

Karamni tuzlashning bir necha usuli mavjud. Hamma usullarining asosi tuz va sabzidan iborat. Tuzlangan karamning tashqi ko'rinishi va uning ozuqalik qimmati karamning umumiy og'irligiga nisbatan 3-5% sabzi qo'shilsa yetarli hisoblanadi. Tuz esa karam va sabzining umumiy massasiga nisbatan 1,7% ni tashkil qilishi lozim.

Ko'pgina hollarda tuzlashda olma (8% gacha), lavlagi (6% gacha), shirin qalampir (10% gacha) va ziravorlar qo'shiladi. Shu hisobdan 100 kg tozalangan karamga taxminan 2 kg tuz, 3-4 kg sabzi, xohishga ko'ra 6 kg olma (bir necha bo'lak qilib kesilgan holda yoki butunligicha), 5 g shirin qalampir kerak bo'ladi. Karamni tuzlashda bijg'ish jarayoni natijasida sut kislotasi (1,5-2%) karamga xushbo'y maza beradi, mikroorganizmlarning rivojlanishiga yo'l bermaydi va tuzlangan karamning uzoq saqlanishini taminlaydi.

Karam bochkalarda, yog'och idishlarda, polimer materiallardan qilingan idishlarda va boshqa idishlarda tuzlanadi. Hamma idishlar zich berkitiladigan va hosil bo'ladigan kislotalarga chidamli bo'lishi zarur. Karam tuzlashga mo'ljallangan idishlar avvaldan tayyorlanadi. Bunda ular tozalanadi, 1 t lik joyga 50 g oltingugurt tutatiladi.

Рахбар	Tuyg'unov R			001.422.044. БМИ. 2014 й.	Варак
Бажарди	Ishmurodov T				
Узг. Варак	Не хужжат	Имзо	Сана		



Karamni to'g'rash maxsus maydalagich mashinalarda olib boriladi. Sabzi ham ushbu maydalagichdan o'tkaziladi.

Karam idishga zichlab solingandan so'ng ustidan og'ir yuk bilan zichlashtiriladi. Yukning og'irligi ta'sirida karam yanada zichlashib bosiladi, tuzli suvi ustiga ko'tarilib, karamni ko'mib turadi, tuzli suv ko'rinmasa ustidagi yuk yanada ko'paytiriladi, chunki suvga cho'kmagan karam tezda buziladi.

Karamning bijg'ishi haroratga bog'liq, 16-18°S da 10 kunda, 30°S da esa 6 kunda tayyor bo'ladi. Karam tuzlashning maqbul harorati 20°S hisoblanadi.

Idishda ko'pik paydo bo'lganda orasidagi havoni chiqarib yuborish uchun tubiga yetkazib tayoq botiriladi (bu har 2 kunda takrorlanadi). Karam achish jarayonida oq yoki sariq-qahrabo tusga kirishi, xira rangdagi tuzli suvi esa tiniq tus olishi kerak. Idishda ko'pik yo'qolganidan keyin ustidagi yuk olib tozalanib yuviladi, keyin avvalgiga nisbatan yengilroq yuk bostiriladi. Tuzlangan karamni hammavaqt tuzli suvda, ustidan yuk bostirilgan holda salqin joyda saqlash kerak.

Рахбар	Tuyg'unov R			001.422.044. БМИ. 2014 й.	Варак
Бажарди	Ishmurodov T				
Узг	Варак	№ хужжат	Имзо	Сана	

Tuzli suvdan olingan karam tarkibidagi S vitamini tezda parchalanib ketadi. Tuzlangan karam 0-2°S da saqlanadi.

Sabzavotlarni tuzlashda va mevalarni ho'llashda YeS-200 markali konteynerdan foydalaniladi. Konserva zavodlarida karamni tuzlashda uzluksiz ishlaydigan liniyalardan foydalaniladi. Bunda hamma texnologik operatsiyalar mexanizmlarda bajariladi.

Tuzlangan karam uchun davlat standarti mavjud. Ushbu standartga ko'ra, I sort tuzlangan karamda osh tuzining mikdori 1,2-1,8%, kislotalilik 0,7-1,3%, II sort uchun osh tuzi 2% gacha ruxsat etiladi.



Bodring va pomidorni tuzlash. Bodring va pomidorni tuzlash karamni tuzlashdan deyarli farq qilmaydi.

Bodringni tuzlash uchun to'g'ri shakldagi, shikastlanmagan, iloji bo'lsa bir xil yiriklikdagi barra bodring tanlab olinadi. Bodring biroz so'ligan bo'lsa, tuzlashdan oldin 4-5 soat sovuq suvga solib qo'yiladi.

Tuzlanadigan pomidor mevalari ham saralab olinadi.

Рахбар		Tuyg'unov R			001.422.044. БМИ. 2014 й.	Варак
Бажарди		Ishmurodov T				
Узг	Варак	№ хужжат	Имзо	Сана		

Bodringni tuzlashdan ilgari uzunligiga qarab guruhlarga ajratiladi: I guruhga 3-5 sm, II guruhga 5-7 sm, III guruhga 7-9 sm va IV guruhga 12 sm gacha bodringlar ajratiladi va ular alohida tuzlanadi.

Bodringni tuzlashda turli xil ko'rsatmalardan foydalaniladi. Ularda 3-4% gacha ukrop, 0,25-0,6% gacha sarimsoq; 0,1-0,15% gacha achchiq qalampir, 0,5-0,8% gacha xren bo'lishi kerak. Shu bilan birga dub bargi, petrushka, smorodina bargi, selderey ham solinishi mumkin.

Pomidorni tuzlashda sarimsoq miqdori 0,3-0,4%, ukrop 1,5-2,5%, xren juda kam miqdorda (0,3-0,6%) ishlatiladi. Shuningdek achchiq qalampir (0,1-0,15%), smorodina bargi (1-2,5%) va boshqa ziravorlar ishlatiladi.

Bodring, pomidor, ziravor va idishlar (shisha banka, bochka va boshqalar) yaxshilab yuviladi. Ularni tuzlashdan avval tuzli suv tayyorlanadi. Buning uchun 100 l ichimlik suvga 6 kg tuz solib eritiladi.

Idishning tubiga tayyorlangan ziravorning birdan uch qismi, keyin pomidor yoki bodringning yarmisi, ustidan yana ziravorning birdan uch qismi va pomidor yoki bodringning qolgan yarmi, ustidan esa ziravorning hammasi solinadi. Idishga bodring yoki pomidorni ag'darib solishdan ko'ra terib joylashtirilgani ma'qul. Sabzavotlar kamroq zichlangan bo'lsa, ancha sho'r bo'lib tuzlanadi. Idishga eng oxirida tuzli suv qo'yiladi, sabzavotlar yuzaga qalqib chiqmasligi uchun ustiga toza mato yozib, yog'och qopqoq bilan berkitiladi va yuk bilan bostiriladi.

Oradan 40-50 kun o'tgach tuzlangan bodring yoki pomidor iste'mol qilishga tayyor bo'ladi. Tuzlangan sabzavotlar saqlanadigan xona harorati 0-3°S gacha bo'lishi kerak. Tuzlangan sabzavotlarni saqlash paytida uning yuzida mog'or paydo bo'lsa darhol olib tashlash lozim, ustiga yopilgan mato, qopqoq va bochka devorlari issiq suv bilan yaxshilab yuviladi, Idishdagi tuzlangan sabzavotlar yuzida mog'or paydo bo'lmasligi uchun ustiga biroz xantal kukuni sepib qo'yish tavsiya etiladi.

Tuzli eritmadagi tuzning konsentrasiyasi sabzavotlarning katta-kichikligiga, pishganligiga va tuzlangan sabzavotlarni saqlash sharoitiga bog'liq. Kichik

Рахбар	Tuyg'unov R			001.422.044. БМИ. 2014 й.	Варак
Бажарди	Ishmurodov T				
Узг	Варак	№ хужжат	Имзо	Сана	

o'lchamdagi bodringlarni tuzlashda tuzning konsentrasiyasi 6% ga, o'rta o'lchamli bodringlar uchun 7% ga, katta bodringlar uchun 8% ga oshiriladi. Pomidor mevasi qanchalik pishgan va yirik bo'lsa tuzli suv shunchalik sho'rroq qilinadi. Agar tuzlangan sabzavotlar yerto'lada saqlanadigan bo'lsa, tuzning konsentrasiyasi 1% ga oshiriladi.

Tayyor tuzlangan bodring suvida tuzning miqdori 2,5-3,5%, kislotalilik (sut kislotasi hisobida) 0,6-1,2% bo'lishi kerak. Bunda birinchi sortli tuzlangan bodringda ichi bo'sh bodring 3% gacha, ikkinchi tovar sortda esa 10% gacha ruxsat etiladi.

Tuzlangan pomidor suvida tuzning miqdori 2,0-3,5%, kislotalilik 0,8-1,2% bo'lishi mumkin.

Tuzli suv tiniq, zilol, bodringlar esa qattiq va karsillaydigan, pomidor esa yumshoq, yorilmagan bo'lishi kerak.



3.7. Kimyoviy usulda konservalash

Sabzavot va mevalarning ishonchli konservalanishi ta'minlashda, ya'ni

Рахбар	Tuyg'unov R				001.422.044. БМИ. 2014 й.	Варак
Бажарди	Ishmurodov T					
Узг	Варак	№ хужжат	Имзо	Сана		

antiseptik ta'sir yetib mikroorganizm-larni yo'qotishda foydalaniladigan ko'plab kimyoviy konservantlar mavjud. Ammo bu moddalarning aksariyat inson organizmi uchun zararli bo'lib, faqat ba'zilarini ishlab chiqarishda foydalanishga ruxsat yetiladi. Antiseptik birikmalar ichida oziq-ovqat mahsulotlarining tabiiy komponentlaridan biri – sirka kislotasi to'g'risida avvalgi bo'limlarda to'xtab o'tilgan yedi.

Mamlakatimizda kimyoviy konservantlardan cheklangan miqdorda - sulufit, benzoy va sorbin kislotalari hamda ularning tuzlari qo'llaniladi. Bundan tashqari ba'zi modda va antibiotiklarning ta'siri o'rganilmoqda. Ularning oziq-ovqatlardagi miqdori tibbiyot yo'li bilan tekshirilgandan keyin me'yori belgilanadi.

Sulfitlash. Oltingugurt kislotasini antiseptik xususiyatiga asoslangan sulufitlashda meva-sabzavot konservalarining buzilishini (irish, mog'orlash va boshqalar) chaqiruvchi barcha guruh mikroorganizmlarni rivojlanishi to'xtatiladi. Oltingugurt kislotasining harakati mikroorganizmlarning oksidlanishtiklanish fermentlarining faol guruhlarini himoyalash va protoplazmalar tuzilishini o'zgarishiga asoslangan bo'lib, natijada ular halok bo'ladi. Sulfit kislotasi sabzavot va mevalardagi monoqandlar bilan uzviy bog'langan bo'ladi. Sulfitasiyani konservalash samarasi nordonlikka bog'liq, shuning uchun faqat nordon xom-ashyo (meva, rezavorlar) sulfitlanadi. Undan tashqari sulfitlangan nordon xom ashyodan qizdirish natijasida sulfit angidrid yengil uchib ketadi.

Oltingugurt angidridi konserva korxonalariga suyultirilgan holatda po'lat ballonlarda keltiriladi. Uning atmosfera bosimi ostidagi harorat - 10°S. Harorat ko'tarilishi natijasida bosim ortib boradi, shu sababli ballonlarni salqin joyda saqlagan ma'qul. Oltingugurt angidridi zaharli bo'lib, uni qo'llashda yehtiyotkorlik talab qilinadi. Shuning uchun ishchilarda protivogaz yoki respirator bo'lishi shart.

Suyuq oltingugurt angidridini to'g'ridan-to'g'ri sulfitlanadigan mahsulotga yuborish mumkin. Uning miqdori sulfitometr yordamida mo'ljallanadi: uskunaning o'lchov silindrga zarur hajmida angidrid yig'ib, so'ngra mahsulotga yuboriladi.

Angidridning ishchi aralashmasini yuzaga keltirishda dastlabki tayyorlash

Рахбар	Tuyg'unov R			001.422.044. БМИ. 2014 й.	Варак
Бажарди	Ishmurodov T				
Уза	Варак	№ хужжат	Имзо	Сана	

usuli qo'llaniladi. Buning uchun gaz rezina shlang orqali og'zi yopiq hajmga, masalan sovuq suvli bochkaga o'tkaziladi. Sovuq suvdan foydalanishdan maqsad haroratni tushirishdir, chunki harorat ko'tarilsa, angidridning aralashishi pasayadi. Masalan, 20°S da u 11,5% ni tashkil yetadi. Amalda 4-6% li aralashmalar ishlatilib, unda angidrid uchib ketib, isrof bo'lishidan holi yetiladi.

Mahsulotga yuborilayotgan ishchi angidrid aralashmasining so'nggi quvvati 0,12-0,2% oralig'ida bo'lishi kerak. Agar gazli oltingugurt angidrid ballondan qo'llanilsa, me'yorlash tarozi yoki sulüfitometr yordamida 1 kg meva yoki rezavor uchun 1,5 yoki 2 g olinadi. Yirik rezavorlarda odatda suyuq angidrid (1 tonna xom ashyoga 2 kg) ishlatiladi.

Sulifitlangan yarim fabrikatlar 10°S past haroratda saqlanadi. Keyinchalik qayta ishlash uchun ko'p qaynatiladi. Bunda desulüfitlash ro'y berib, angidrid uchib ketadi. Uning miqdori tayyor murabbo, quritilgan mevalar, marmelad, povidlo, sharbat va musallaslarda 100 mg/kgdan oshmasligi kerak. Sulüfitlangan yarim fabrikatlardan bolalar uchun taomlar ish-lab chiqarilmaydi. quruq sulüfitlashni, masalan, urug'li mevalar uchun qo'l-lash mumkin. Mevalar qutilarda zich berkitiladigan xonalarda saqlanadi.

Oltingugurt angidridi kameralarga ballonda yoki ko'chma o'choqlarda yoqiladi (1 tonna mevaga 2 kg). Dudlatish davomiyligi 10–20 soat. Dudlatil-gan mevalar rangini yo'qotadi, bir muncha yumshaydi, bo'linganda yetga singan angidrid hidi seziladi. Ular pastqam omborlarda harorat 10°S gacha shamollatmasdan saqlanadi.

Benzoynordon natriy. Benzoy kislotasi, ayniqsa, achitqi va mog'orlarga kuchli, bakteriyalarga oz ta'sirli antiseptik hisoblanadi. Ammo u suvda yomon aralashadi, xona haroratida 0,2-5%li aralashma yuzaga kelib, konservalashni mushkullashtirada. Shuning uchun uning tuzi benzoynordon natriydan foydalanilgani ma'qul. Benzoynordon natriyni olish uchun benzoy kislotasi va soda issiq suvda aralashtiriladi, konservalashda odatda 55%li aralashmadan foydalanadi. Uning so'nggi quvvati 0,12%dan oshmasligi, 0,07-0,1% bo'lishi

Рахбар	Tuyg'unov R			001.422.044. БМИ. 2014 й.	Варак
Бажарди	Ishmurodov T				
Узг	Варак	№ хужжат	Имзо	Сана	

kerak.

Konservalash ta'siri aynan rN 2,-3,5 nordon muhitda, ya'ni ushbu anteseptik faqat kuchli va nordon meva va rezavor mevalarni konservalash uchun yaroqli. Benzoynordon natriy oqlash xususiyatiga ega emas. Benzoy-nordon natriy oltingugrt angidridi singari uchmaydi, shu sababli uni issiq mahsulotlarga, masalan pyurega qo'shish mumkin.

Zarur miqdordagi ishchi aralashma mahsulotga qo'shilib, yaxshilab aralashtiriladi, ayniqsa, pyuresimon konsistensiya, idishlarga joylanadi va og'zi yopiladi. Benzoynordon natriy va uning tuzlari miqdori sharbat, pyureda ko'pi bilan 1000 mg/kg, marmelad va povidloda - 700 mg/kg dan oshmasligi kerak.

3.8. Turli sabzavotlardan uy sharoitida turli xil konservalar tayyorlash texnologiyasi

Pomidor sharbati tayyorlash. Sharbat xushxo'r va sifatli bo'lishi uchun yetilib qizarib pishgan, yangi uzilgan, seret, shirador, po'sti yupqa pomidorlar tanlanadi. Pishmagan, chala pishgan va o'ta pishgan pomidorlardan siqib olingan sharbat bemaza, taxir va sifatsiz bo'ladi. Chirigan, birtekisda pishmagan, oftobda kuyib pishgan pomidorlardan bundan maqsadda foydalanish yaramaydi.

Tanlangan pomidorlar ikki marta yuviladi. Shundaye keyin pomidorlar ikkiga bo'linib, ichidagi yashil rang qismi, meva bandi kesib tashlanadi, so'ngra ular to'g'raladi va go'sht qiymalagichdan o'tkaziladi, sirlangan idashda olovga qo'yiladi, 95-97°S gacha qizdiriladi, keyin chovli (dushlag) yoki maxsus elakdan ishqalab o'tkaziladi. Pomidor bo'tqasi elakdan ikki marta o'tkazilish: birinchi marta ko'zlarining kattaligi 1,5 mm bo'lgan elakdan va ikkinchi marta ko'zlariningg kattaligi 0,5-0,75 mm bo'lgan elakdan foydalanish lozim. Shunda sharbatning quyuqligi bir xilda bo'ladi.

Hosil bo'lgan pomidor sharbati sirlangan idishda olovga qo'yiladi va 3-5 daqiqa davomida qaynatiladi, so'ngra tozalangan va isitilgan 1,0 l banka va 2-3 l balonlarga qaynoqligida quyiladi.

Рахбар	Tuyg'unov R			001.422.044. БМИ. 2014 й.	Варак
Бажарди	Ishmurodov T				
Уза	Варак	№ хужжат	Имзо	Сана	

Sharbat to'ldirilgan banka va balonlar toza (qaynatilgan) tnuka qop-qoqlari burab bekitiladi va to'ntarib qo'yilgan holda sovutiladi. Bunday idishlarga quyilgan sharbatni sterilizasiya qilishning hojati yo'q, lekin 200 g, 0,35 l va 0,5 l bankalarga quyilgan sharbat 10-15 daqiqa davomida (100°S) qizdirilishi lozim.

Bankalarga sharbatni limmo-lim qilib to'ldirib quyish kerak. Agar bankada havo qolsa, vitaminlar, xususan S vitamin havo tarkibidagi kislorod ta'siridan parchalanadi (yemiriladi). Tadqiqotlardan ma'lum bo'lishicha, O'zbekistonda yetishtiriladigan pomidorlarda 42 mg/% gacha S vitamini bor. Tayyor pomidor sharbatidagi S vitamini miqdori 31 mg% ni tashkil qiladi. Sharbat uzoq vaqt (6-8 oy) saqlanganida undagi vitaminlar miqdori 12-15 % gacha kamayadi. Sharbat iliq joyda saqlangan va bankaga to'ldirilib quyilmagan(bankada havo bo'shlig'i qolgan) hollarda vitaminlar yanada kamayadi.

Pomidor sharbati servitamin bo'lsin desangiz pomidor bo'tqasiga 15-25% qizil bulg'or garmdori bo'tqasi qo'shing shunday bo'tqadan hosil bo'lgan sharbat xushta'm va rangi chiroyli bo'ladi.

Sharbatning ko'p oz chiqishi xom ashyoni sifatiga va qo'llanilgan usulga bog'liq. O'rta hisobda 80-85 % sharbat chiqadi. Bir l sharbat tayyorlash uchun 1200 g pomidor olinadi (Oripov R., Sulaymonov I., Umurzoqov E., 1991).

Pomidor qaylasi tayyorlash. Yangi uzilgan qizil pomidorlardan yuqori sifatli, xushta'm, servitamin qayla tayyorlash mumkin. Pomidor qaylasi go'shtdan, baliqdan va parranda go'shtidan pishirilgan quyuq taomlarga qo'shib beriladi. Pomidar qaylasi ikki xil bo'ladi: nordon (o'tkir) qayla va kubancha qayla.

Nordon (o'tkir) qayla shakar, sirka va tuz qo'shib qaynatilgan pomidor qaylasi bo'tqasidan iborat.

Qayla tayyorlash maqsadida tanlangan pomidorlar yaxshilab yuvilgandan keyin to'g'raladi va go'sht qiymalagichdan o'tkaziladi, sirlangan idishda olovga qo'yiladi. Qaynab chiqqandan keyin elakdan ishqalab o'tkaziladi. Qayla xushta'm, servitamin va ranggi chiroyli bo'lishi uchun unga vaznining 25% i miqdorida qizil bulg'or garmdori bo'tqasi qo'shiladi. Pomidor qaylasi qaynab, dastlabki hajmning

Рахбар	Tuyg'unov R			001.422.044. БМИ. 2014 й.	Варак
Бажарди	Ishmurodov T				
Узг	Варак	№ хужжат	Имзо	Сана	

yarmicha kamaygandan keyin unga elangan shakar qo'shib, doimo qorishtirib turiladi, tayyor bo'lishi oldidan tuz va eng oxirida sirka va to'yingan zirovorlar qo'shiladi. Qayla to'g'ralgan pomidordan tayyorlanganida 45 daqiqa qaynatiladi.

Tayyor qiyma qaynab turgan holida toza va isib turgan bankalarga to'ldirib, quyiladi(bankaga quyayotganda 95°S dan past bo'lmasin). Toza qaynatilgan 1,0 l li bankalar 20 daqiqa, 0,5 daqiqa bankalar 30 daqiqa qaynatiladi va tunuka qopqoqlar bilan berkitilib, issiq suvli kostryulkaga joylanadi va 100°S da muayyan vaqt qizdiriladi, bunda 0,35 l li bankalar 50 daqiqa qizdirilmog'i lozim.

Shu muddat o'tgandan so'ng bankalar suvdan olinadi, qopqoqlar darhol burab mahkamlanadi va ular to'ntarib qo'yilib, shu holida sovutiladi.

Bir kg o'tkir qayla tayyorlash uchun 2070 g yangi tayyorlangan pomidor bo'tqasi, 695 g yangi tayyorlangan qizil garmdori bo'tqasi, 140 g shakar, 25 g tuz 7 g sirka kislotasi (80%li), 175 g qalampir munchoq, 175 g dolchin, 1 g xushbo'y, chuchuk, murch, 0,5 g achchiq murch, 0,5 g muskat yong'oq, 0,5 g sarimsoq kerak bo'ladi (Shirokov E.P.1989).

Рахбар		Tuyg'unov R			001.422.044. БМИ. 2014 й.	Варак
Бажарди		Ishmurodov T				
Узг	Варак	№ хужжат	Имзо	Сана		

3.9. Xom – ashyo va tayyor mahsulotlar hisoblashlari.

Xom – ashyo va tayyor mahsulotlar hisoblashlarida quyidagilar aniqlanadi:

- 1) xom-ashyo kelish grafigi;
- 2) texnologik liniya, sex va zavodning ishlash grafigi;
- 3) texnologik liniya, sex va zavodning dasturi : oylar va yil bo'yicha ishlab chiqariladigan konservalar turlari hamda miqdori;
- 4) 1 ming shartli banka tayyor mahsulotni ishlab chiqarishga ketadigan xom-ashyo va materiallar sarflanishi me'yorlari;
- 5) xom-ashyo va materiallarga bo'lgan soatbay, smenaviy va yillik talab (ehtiyoj);
- 6) har qaysi ishlab chiqarish operatsiyasiga bir soatda keladigan xom-ashyo va yarim tayyor mahsulotlar miqdori.

Xisoblashlar uchun dastlabki ma'lumotlar: Loyihalanayotgan tabiiy sabzavotli konservalar ishlab chiqarish tarmog'ining quvvati, ya'ni liniyaning unumdorligi 25ming shartli banka /smena. Mahsulot 1-82-2000 sig'imli shisha idishga qadoqlanadi. Shuning uchun shartli banka hisobidan fizik bankaga qayta hisoblash koeffitsiyenti – 0,353. Banka sig'imi 1000ml.

3.3.1.jadval

№	Konserva mahsuloti turi	Sof og'irligi (massa)	Asosiy mahsulotlarning nomlari
1.	Butunligicha po'sti bilan konservalangan pomidorlar.	1920	Pomidor
2.	Konservalangan bodringlar	1920	Bodring
3.	Natural shirin qalampir.	1890	Shirin qalampir

Asosiy mahsulotlarni qayta ishlash muddatlari: pomidor – 1iyundan 31 oktyabrgacha, bodring – 15 iyundan 30 sentyabrgacha, shirin qalampir – 16

Рахбар	Tuyg'unov R			001.422.044. БМИ. 2014 й.	Варак
Бажарди	Ishmurodov T				
Узе	Варак	№ хужжат	Имзо		Сана

iyuldan 15 oktyabrgacha, sabzi – 1iyundan 15 iyulgacha va 1 oktyabrdan 28 fevralgacha, kartoshka – 1iyundan 15 iyulgacha va 16oktyabrdan 28 fevralgacha.

3.2 – jadval

Xom ashyoning keltirilish grafigi

Asosiy xom ashyo	Yil oylari					
	iyun	iyul	avgust	sentyabr	oktyabr	noyabr
Pomidor		1 _____ 31				
Bodring	15 _____ 30					
Shirin qalampir		16 _____ 15				

Xom ashyo va materiallarga bo'lgan ehtiyojni (talabni) hisoblashda loyihalalanayotgan sex maksimal 3smenada ishlashini e'tiborga olib va har bir smenada 1soat dam olish (tushlik) tanaffusi bo'lishi lozimligini e'tiborga olib, bir smena ish vaqtining davomlilikini 7soat deb tanlab olamiz. Unda loyihalalanayotgan konserva ishlab chiqarish tarmog'ining soatbay unumdorligi

$$\frac{30}{87} = 3,5714 \text{ ming shartli banka/soat bo'ladi.}$$

Xom ashyo va materiallar sarflanishi quyidagicha aniqlanadi:

$$\text{soatiga } R_{\text{soat}} = 3,5714 \cdot q, \text{ kg}$$

$$\text{smenada } R_{\text{smen}} = 30 \cdot q, \text{ kg}$$

$$\text{yil davomida } R_{\text{yil}} = mq/1000, \text{ tonna}$$

Bu yerda: q - xom ashyo va materiallar sarfi me'yori, kg/ming shartli banka;

m- yil davomida ishlab chiqariladigan konserva mahsuloti miqdori, ming shartli banka.

Рахбар	Tuyg'unov R		
Бажарди	Ishmurodov T		
Узг	Варак	№ хужжат	Имзо Сана

001.422.044. БМИ. 2014 й.

Варак

3.3.4.-jadval

Xom ashyo va materiallarga bo'lgan ehtiyojini (talabni) hisoblash.

Konserva turi,unga sarflanadigan xom ashyo va materiallar nomlari	Xom ashyo va materiallar sarfi me'yori, kg/m.sh.b.	Xom ashyo va materiallarning sarflanishi miqdori		
		Soatiga, kg	Smenada, kg	Yil davomida, t
1	2	3	4	5
1. Butunligicha po'sti bilan konservalangan pomidorlar:				
pomidor	405	1446,4	10125	1053
tuz	5	17,86	125	13
2. Konservalangan bodringlar:				
bodring	225	803,6	5625	511,9
tuz	16	57,14	400	36,4
80%-li sirka kislotasi				
petrushka ko'kati	2,2	7,857	55	5,005
ukrop ko'kati	1,2	4,286	30	2,73
selderey ko'kati	4,5	16,07	112,5	10,24
xren bargi	2,8	10,0	70	6,37
sarimsoq	2,8	10,0	70	6,37
qalampir	1,0	3,571	25	2,28
murch	0,33	1,179	8,25	0,75
dafna daraxti bargi	0,18	0,643	4,5	0,41
yalpiz bargi	0,09	0,3215	2,25	0,205
	0,25	0,893	6,25	0,57

Рахбар	Tuyg'unov R		
Бажарди	Ishmurodov T		
Узг	Варак	№ хужжат	Имзо
			Сана

001.422.044. БМИ. 2014 й.

Варак

Sabzavotli garnir» konservasi uchun asosiy xom ashyo mahsulotlarining sarflanishi me'yorlari yilning 1 va 11 kvartallarida yilning 111 va 1U kvartallaridagiga qaraganda ortiq. Shu sababli asosiy xom ashyo mahsulotlari bo'lgan kartoshka va sabzining sarflanish miqdorlarini yanvar, fevral, iyun oylari uchun alohida (ya'ni 1 va 11 kv.), hamda iyul-dekabr (111 va 1Ukv.) oylari uchun alohida hisoblaymiz. Bunda ishlab chiqariladigan konserva mahsuloti miqdorini 1 va 11 kvartallar uchun 1825 m.sh.b., 111 va 1U kvartallar uchun esa 1950 m.sh.b. deb olamiz (3.4.4.-jadvalga asosan). Boshqa yordamchi xom ashyo va materiallarning sarflanish kvartallar bo'yicha o'zgarmaydi.

3.3.5 – jadval

«Sabzavotli garnir» konservasi uchun xom ashyo va materiallarga bo'lgan ehtiyojni hisoblash.

Xom ashyo va materiallarning nomlari	Xom ashyo va materiallar sarfi me'yori, kg/m.sh.b.	Xom ashyo va materiallarning sarflanadigan miqdori		
		Soatiga, kg	Smenada, kg	Yil davomida, tonna
Asosiy xom ashyo				
I va II kvartallarda				
Kartoshka	111,3	397,5	2782,5	203,1
Sabzi	83,4	297,9	2085	152,2
III va I V kvartallarda				
Kartoshka	87,5	312,5	2187,5	170,6
Sabzi	80,5	287,5	2012,5	157,0
Yordamchi xom ashyo va materiallar:				
konservalangan ko'k no'xatga	45,9	163,9	1147,5	173,3
oq loviya	24,2	86,43	605	91,4
petrushka ko'kati	0,8	2,857	20	3,02
ukrop ko'kati	0,8	2,857	20	3,02
shakar	4,0	14,29	100	15,1
tuz	2,65	9,464	66,3	10,0
natriy glyutamat	0,72	2,571	18	2,72

Рахбар	Tuyg'unov R		
Бажарди	Ishmurodov T		
Узг	Варак	№ ҳужжат	Имзо
			Сана

001.422.044. БМИ. 2014 й.

Варак

**Loyihalanayotgan sabzavotli konservalar ishlab chiqarish tarmog'ining
xom ashyo va materiallarga bo'lgan yillik ehtiyoji, tonna hisobida.**

Pomidor	1053	Ukrop ko'kati	13,26
Bodring	511,9	Selderey ko'kati	6,37
Shirin qalampir	1078	Xren bargi	6,37
Sabzi	1434,2	Yalpiz bargi	0,57
Kartoshka	373,7	Sarimsoq	2,28
Tuz	84	Qalampir	0,75
80%-li sirka		Murch	0,41
kislotasi	5,01	Dafna daraxti bargi	
Petrushka ko'kati		Shakar	0,205
Konservalangan	5,75	Natriy glyutamat	15,1
ko'k no'xatcha	173,3		2,72
Oq loviya	91,4		

Konservalarni tayyorlashda jarayonlar bo'yicha yarim tayyor mahsulotlar chiqishini aniqlash shu jarayonga kelayotgan mahsulot massasi va jarayonda mahsulotning ishlov berilishida chiqadigan chiqindilar hamda mahsulot yo'qotilishlarining foizlari asosida bajariladi.

3.3.7-jadval

«Butunligicha po'sti bilan konservalangan pomidorlar» konservasini
tayyorlashda jarayonlar bo'yicha yarim tayyor mahsulotlar chiqishini hisoblash
(kg/soatlarda)

Xom ashyo va yarim tayyor mahsulotning harajati	Pomidorlar	Tomat pulpasi	Tuz
1	2	3	4
Saqlashga keladi,kg	2892,8	-	35,72
Chiqindilar va yo'qotishlar, %,	173,568	-	1

Рахбар	Туьг'unov R			001.422.044. БМИ. 2014 й.		Варак
Бажарди	Ishmurodov T					
Узг	Варак	№ хужжат	Имзо	Сана		

Yuvishga keladi, kg	2719,232	-	0,357
Chiqindilar va yo'qotishlar, %	123,726	-	-
Saralashga keladi, kg	2595,506	-	-
Ezish (urug'ini ajratish)ga keladi, kg	-	1149,906	-
Chiqindilar va yo'qotishlar, %	-	114,99	-
Qizdirishga keladi, kg	-	1034,916	-
Chiqindilar va yo'qotishlar, %	-	311,048	-
Qirishga keladi, kg	-	1003,868	-
Chiqindilar va yo'qotishlar, %	-	40,154	-
Qadoqlashga keladi, kg	-	-	-
Chiqindilar va yo'qotishlar, %	1445,6	9,637	-
Bankalarga kiradi, kg	1431,144	954,076	35,362

Ishlab chiqariladigan mahsulot miqdori 1-82-1000 bankalari soni bo'yicha

$$\frac{1431,144 + 954,076 + 35362}{1,92} = 1260,72 \text{ dona /soatiga}$$

yoki texnologik liniya unumdorligi (quvvati) bo'yicha hisoblasak

$$50000 \cdot 0,353 = 17650 \frac{\text{дона}}{\text{смена}} = \frac{17650}{7} = 2521,4285 \frac{\text{ш.б.}}{\text{соат}}$$

I-82-2000 tipdagi bankalar soni bo'yicha;

$$\frac{2521,44285 \text{ ш.б.}}{2} = 1260,714 \frac{\text{дона}}{\text{соат}}$$

Ishlab chiqariladigan mahsulot miqdori I-82-1000 bankalari soni bo'yicha:

Рахбар		Tuyg'unov R			001.422.044. БМИ. 2014 й.	Варак
Бажарди		Ishmurodov T				
Узг	Варак	№ ҳужжат	Имзо	Сана		

$$\frac{1391825 + 61,030 + 5,572 + 4,244 + 957,850}{1,92} = 1260,688$$

Dona soatiga, texnologik liniya unu mdorligi bo'yicha esa 1260,714 dona soat

«Baqlajon ikrasi»

Konservasi ishlab chiqarish texnologik jarayoni grafigini tuzamis. Liniya unumdorligi 2,5 t/s. Maxsulot 82-500 bankasiga qadoklanadi. Smena ertalabki 8 da boshlanadi.

Texnologik sxema quyidagicha:

- 1) yuvish;
- 2) tozalash va inspeksiya;
- 3) kesish;
- 4) kesilgan xomashyoni kovurish;
- 5) maydalash;
- 6) sabzavot massasi va kolgan komponentlarni aralashtirish;
- 7) kadoklash;
- 8) bankani berkitish;
- 9) sterilizasiya va sovutish;
- 10) omborga joylashtirish.

Har bir operatsiya davomiyligini topamiz.

1. Yuvish. Ventillyasion yuvish mashinasi uzunligi 6 m. Lenta tezligi $V = 0,15 \text{ m/s}$. Xom ashyo harakat tezligi

$$\frac{6}{60 * 0,15} = 0,6 \text{ мин}$$

Рахбар		Tuyg'unov R			001.422.044. БМИ. 2014 й.	Варак
Бажарди		Ishmurodov T				
Узе	Варак	№ хужжат	Имзо	Сана		

2. Tozalash va inspeksiya. Bu operatsiyalar transporter yonida bajarila-di. Transporter uzunligi ishchi soni va ishchiga tugri keladigan transporter qismiga bog'lik. Undan tashkari privod o'rnatish uchun 1,5 - 2 m beriladi. Berilgan unumdorlik uchun transporter uzunligi 6-8 m-ni tashkil qiladi. Lenta harakat tezligi 0,1-0,15 m/s bo'lganda xomashyo o'tish vaqti - ni tashkil qiladi.

$$\frac{8}{60 * 0,1} = 1,3 \text{ мин}$$

3. Kesish. Kesish mashinasi yoqilgandanoq maxsulot beradi (vaqt qisqa)
 4. Qovurish. Mexanizasiyalashtirilgan bug' va yog'li pech sabzavotli korzinalar bilan uzluksiz yuklanadi. Korzinalar sig'imi kichik bo'lgani uchun (12kg) pech kesish mashinasi ishga tushgandan so'ng yoqiladi. Shunday qilib hamma operatsiyalar smena boshlanishida soat 8 da, 5-da qisqa oralik bilan boshlanadi.

5. Maydalash. Qovurish va yog'ini oqizishga 10-15 min vaqt ketadi. Shuning uchun qovurilgan sabzavot maydalashga soat 8¹⁵ da tushadi.

6. Sabzavot massasini boshqa komponentlar bilan aralashtirish. Bu operatsiya davriy ishlaydigan aralashtirgichda amalga oshiriladi. Aralashtirgichning umumiy hajmi 300 l -deb qabul qilamiz, ishchi qismi 80% umumiy hajmdan. Maydalangan baqlajon miqdori ikrani 70% -ini tashkil qiladi. Aralashtirgich vannasiga birdaniga $300 * 0,8 * 0,7 = 168 \text{ kg}$. Liniya unumdorligi 2,5 t/s. Yuqotish va chiqit 45%. Shunday qilib aralashtirishga quyidagi miqdordagi sabzavot massasi tushadi.

$$\frac{1187 * 2,5 * (100 - 45)}{100} = 1632 \text{ кг / соат}$$

Sabzavot massasini aralashtirgichga solishga sarflanadigan vaqt $\frac{168 * 60}{1632} = 7 \text{ мин.}$

Qolgan komponentlarning solinishiga 3 min qabul qilib aralashti-rish boshlanadigan vaqtni topamiz: $3+7=10 \text{ min.}$

soat $8,15+10 \text{ min} = 8.25 \text{ min.}$

Рахбар	Tuyg'unov R			001.422.044. БМИ. 2014 й.	Варак
Бажарди	Ishmurodov T				
Узг	Варак	№ хужжат	Имзо	Сана	

Qadoqlash. Aralashtirish 15 min davom etadi. Demak ikrani qadoq-lash 8⁴⁰ da boshlanishi kerak.

8. Bankani berkitish. To'ldirilgan bankalar uzluksiz berkitishga uzatiladi. Demak berkitish mashinasi 8⁴⁰ da boshlanishi kerak.

